P. P. Maria "Innovation performance and its influence on enterprise economic efficiency in the market" nomli tadqiqotida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlarni asos qilib oladi: korxonaning innovatsion strategiyasi darajasi, salohiyatdan foydalanish sifati, investitsiyalarning hajmi. Taktik jihatdan esa samaradorlikni kompaniyaning raqobatdagi javob berish qobiliyati va innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish tezligi belgilaydi. Olimlarning umumiy fikriga ko'ra, innovatsion faoliyat samaradorligi mustaqil iqtisodiy toifa bo'lib, uning asosiy vazifasi – ilg'or ishlarning texnologik va metodologik asosda natijadorlik darajasini baholashdan iboratdir.

M. F. Aliyev "Innovation management and increasing economic efficiency" nomli ilmiy ishida innovatsiyalarni zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi deb e'tirof etadi. Unga ko'ra, biznesdagi innovatsion loyihalarning muvaffaqiyati nafaqat yangi mahsulot yoki xizmat yaratish bilan, balki ushbu loyihalarning iqtisodiy samaradorligini

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyundagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-sonli Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4910391>



oshirish bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, innovatsion loyihalarni rejalashtirish va boshqarishda turli yondashuvlardan foydalanish kompaniya va davlatlar iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [9].

R. K. Guliyev "Application and management of economic innovations in Azerbaijan" nomli maqolasida iqtisodiy innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'llari tahlil qilingan. U quyidagilarni asosiy yo'nalish sifatida ko'rsatadi: ilmiy va texnik yutuqlarni ishlab chiqarishga tadbqiq etish, mahsulot raqobatbardoshligini oshiradigan innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalar asosini tashkil etuvchi innovatsiyalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, innovatsion loyihalarni davlat tomonidan tartibga solish bilan bog'liq mexanizmlarni intellektual mulk himoyasi va raqobatbardosh bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish [10].

Shuningdek, F. Yan, S. Martin va V. Bart tomonidan yozilgan "Handbook of the Economics of Innovation" [11] nomli nufuzli asarning 20-bobida innovatsiyalar, odatda, ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanuvchi va yuqori malakali xodimlarga ega kompaniyalar tomonidan amalga oshirilishi qayd etilgan. L. Xarlamova, V. Xarlamov va A. Antoxina muallifligidagi "Effective Management as a Condition for Innovative Development of the National Economy" [12] nomli tadqiqotda esa innovatsion rivojlanishni jadallashtirish uchun zamonaviy boshqaruvning samarali tizimini shakllantirish muhimligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, davlat va biznes manfaatlarining uyg'unlashuvi innovatsion rivojlanishni jadallashtirish bilan birga, milliy iqtisodiyotda yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan sinergik samarani yuzaga keltiradi. Bu esa inson kapitalining sifati, innovatsion boshqaruv vositalari va yondashuvlarning muhimligini oshirish orqali amalga oshadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili asosida innovatsiyalarga quyidagicha ta'rif berish mumkin: innovatsiyalar – bu ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish, mahsulot va xizmatlarning yangi sifat darajalarini yaratish, boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan texnik, texnologik, iqtisodiy hamda tashkiliy-boshqaruv xarakteridagi jarayonlar majmuidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola doirasidagi tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, ilmiy adabiyotlar sharhi va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatning rivojlanish darajasi va uning iqtisodiy samaradorligiga doir rasmiy statistik ma'lumotlar, xalqaro hisobotlar hamda ilmiy maqolalar chuqur o'rganilib, ular asosida tegishli ilmiy xulosalar chiqarildi.

Bundan tashqari, maqolada tahliliy yondashuv asosida analiz va sintez, statistik tahlil kabi iqtisodiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasida nazariy va amaliy manbalar birgalikda qo'llanilgan bo'lib, ular asosida innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va takomillashtirishga doir asosli ilmiy mulohazalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda resurslardan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalar sonini ko'paytirish, innovatsiyalarni keng joriy etish orqali aholining turmush darajasini oshirish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu bois, innovatsion rivojlanishga zamonaviy boshqaruvning samarali tizimi, tadbirkorlik subyektlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimiz innovatsion iqtisodiyotining raqobatbardoshlik darajasiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga uning xalqaro mehnat taqsimotidagi strategik o'rni, mavjud tabiiy resurslari, mehnat salohiyati hamda moliyaviy resurslar shakllanishining institutsional va makroiqtisodiy shart-sharoitlari kiradi. Mazkur omillar innovatsion faoliyatni rivojlantirishda tayanch sifatida xizmat qiladi va milliy iqtisodiyotning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini belgilaydi.

Global innovatsiya indeksining 2024-yilgi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 133 ta davlat ichida 83-o'rinni egallagan. Shuningdek, O'zbekiston innovatsiyalar sohasi bo'yicha milliy iqtisodiy rivojlanish darajasiga nisbatan yuqori samaradorlikka erishgan davlatlar safidan joy oldi, ya'ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan innovatsion faoliyat samaradorligi yuqori darajada qayd etilgan [13]. Mazkur indeksda quyidagi holatlar qayd etilgan:

- mamlakatlar 4 ta daromad guruhiga ajratilgan bo'lib (yuqori daromad, yuqori-o'rta daromad, quyi-o'rta daromad va past daromad), O'zbekiston o'zining "quyi-o'rta daromad" guruhida 38 ta davlat orasida 10-o'rinni egallagan;
- mintaqaviy tasnifga ko'ra, O'zbekiston 10 ta Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari orasida 4-o'rinni egallagan;
- innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurs va sharoitlarni ifodalovchi "innovation input" subindeksida O'zbekiston bir pog'onaga ko'tarilib, 71-o'ringa chiqdi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni amaliyotda tatbiq etishda erishilgan natijalarni ko'rsatadigan "innovation output" subindeksida 91-o'rinni egallagan.



Innovatsion faoliyatning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholashda bir qator ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi:

- Integral samara – bu, odatda, diskontlash asosida natijalar va xarajatlar hisobga olingan holda, innovatsion faoliyatdan olinadigan daromad bilan amalga oshirilgan xarajatlar farqini ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu ko'rsatkich “sof keltirilgan qiymat”, “sof haqiqiy qiymat” yoki “diskontlangan foyda” kabi atamalar bilan ham yuritiladi;

- Rentabellik indeksi – bu indikator, ayniqsa, moliyaviy resurslari cheklangan korxonalar uchun muhim bo'lib, investitsiyalarning diskontlangan daromadiga nisbatan baholanadi. U yuqori tashkilotlarga bo'ysunuvchi yoki davlat tomonidan moliyaviy ko'mak oluvchi tashkilotlar uchun ayniqsa samarali hisoblanadi;

- Rentabellik normasi – bu shunday diskont normasi bo'lib, ma'lum bir yillar o'tganidan so'ng diskontlangan daromad hajmi innovatsiyaga yo'naltirilgan mablag' miqdoriga tenglashadi. Boshqacha aytganda, bu ko'rsatkich innovatsion loyiha orqali kelajakda kutilayotgan daromadlilik darajasini diskont stavkasi yordamida aniqlash imkonini beradi;

- Qoplash muddati – bu investitsiyalarning samaradorligini baholashda eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan biridir. Mazkur ko'rsatkich “kapital mablag'lar qoplash muddati” ko'rsatkichi bilan o'xshash bo'lsa-da, bunda asosiy e'tibor innovatsiyaga kiritilgan mablag'larning haqiqiy qiymatdagi pul oqimlari asosida hisoblanishiga qaratiladi. Bozor sharoitida sarmoya kiritish jarayoni har doim ma'lum xavf bilan bog'liq bo'lib, tavakkalchilik darajasi ortgani sayin qoplash muddati ham uzayadi.

- Innovatsion faoliyat samaradorligini chuqurroq baholash va strategik qarorlar qabul qilishda SWOT tahlili yondashuvi qo'llanildi (1-jadval).

1-jadval. Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligi SWOT tahlili².

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
Iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. Innovatsiyalar yangi mahsulot va xizmatlarning yaratilishiga imkon beradi, bu esa iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshiradi. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyot ancha barqaror bo'ladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Yangi texnologiyalar va avtomatlashtirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, unumdorlikni oshiradi va resurslardan samaraliroq foydalanish imkonini beradi. Texnologik ustunlikni ta'minlaydi. Innovatsiyalar kompaniyalarga raqobatbardoshlikni oshirish va bozor yetakchilaridan biri bo'lish imkoniyatini beradi.	Yuqori sarmoya talab qiladi. Innovatsiyalarni joriy qilish katta miqdorda moliyaviy mablag'larni talab qiladi. Rivojlangan texnologiyalar, laboratoriyalar va tadqiqotlar uchun katta mablag' ajratish zarur bo'ladi. Risk va noaniqlik darajasi yuqori. Innovatsion loyihalar natijalari oldindan aniq bo'lmaydi. Ba'zi loyihalar muvaffaqiyatga erishishi mumkin bo'lsa, ba'zilari esa kutilgan natijani bermasligi mumkin. Innovatsion faoliyat natijalari uzoq muddatda seziladi. Ko'pgina innovatsiyalar darhol daromad keltirmaydi. Ular o'z natijalarini ko'rsatishi uchun bir necha yil talab qilishi mumkin. Bundan tashqari innovatsiyalarni yaratish va tijoratlashtirish ham uzoq yillarni talab qiladi.
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Ko'pgina davlatlar innovatsion tadbirkorlik yaxshilash maqsadida rag'batlantirish uchun grantlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlari taqdim etadi. Yangi ish o'rinlarini yaratadi. Innovatsiyalar yangi sohalarining rivojlanishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining yaratilishiga sabab bo'ladi.	Yuqori raqobat ya'ni innovatsion mahsulot yoki texnologiya tezda raqiblar tomonidan o'zlashtirilishi yoki yaxshiroq variantlari ishlab chiqilishi mumkin. Bozor talabining o'zgaruvchan bo'lganligi sababli innovatsiyalar bozor ehtiyojlariga mos kelmasa, ularning tijorat muvaffaqiyati past bo'ladi. Ya'ni yangi texnologiyalar talab etilmasligi sababli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Yuqoridagi SWOT tahlilidan kelib chiqqan holda innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi strategiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq:

- Davlat tomonidan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlar va dasturlarini kengaytirish, shu bilan birga kichik va o'rta bizneslar uchun innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha maxsus imkoniyatlar yaratish;
- Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun venchur kapital va investitsiyalarni jalb qilish orqali innovatsiyalarni moliyalashtirish muammolariga barhab berishga erishish;
- Iste'molchilar ehtiyojlarini o'rgangan holda innovatsion jarayonlarni rejalashtirish va risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish;
- Innovatsiyalarni tijoratlashtirish va bozorda muvaffaqiyat qozonishini ta'minlash hamda intellektual mulk huquqlarini mustahkamlash va patent tizimini yaxshilash;

² Muallif tomonidan internet saytlari asosida tuzilgan.



- Innovatsiyalarning ildizi bo'lgan ilm-fan va startaplar uchun kadrlarni o'qitish;

Innovatsion faoliyatni yaxshilash uchun qilinayotgan chora-tadbirlar qanchalar muvaffaqiyatli ekanligini aniqlash uchun uning iqtisodiy samaradorligini baholash zaruriyati tug'iladi. Bunda mavzuga oid adabiyotlardan foydalangan holda innovatsion faoliyatning ko'rsatkichlaridan foydalangan holda quyidagi asosiy mezonlar asosida iqtisodiy samaradorligini aniqlash amalga oshiriladi:

Investitsiyalar va natijadorlik ko'rsatkichi:

$$IS = \frac{\text{Foyda}}{\text{Investitsiya hajmi}}$$

Bu yerda:

IS – innovatsion samaradorlik;

Foyda – loyiha natijasida olingan daromad;

Investitsiya hajmi – loyiha uchun sarflangan mablag'.

Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini aniqlash nisbatan murakkab bo'lib, bu ko'rsatkichni hisoblashda korxonada innovatsion faoliyatdan tashqari har bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xarajat bilan innovatsion mahsulot ishlab chiqarish xarajati o'rtasidagi farq tahlil qilinadi. Natijada hosil bo'lgan tafovut innovatsion faoliyat orqali qanday darajada xarajatlarni qisqartirishga erishilganini ko'rsatadi. Ushbu xarajatlarni bevosita xom ashyo sarfi va ish haqi miqdoriga taalluqlidir.

Texnologik samaradorlik esa yangi texnologiyalarni joriy etish natijasida mehnat unumdorligining oshishi yoki resurslar tejalish darajasi asosida tahlil qilinadi. Yuqorida ko'rib chiqilgan baholash usullari asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlanmoqda. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat tomonidan kompleks rag'batlantiruvchi siyosat yuritilishi, tadbirkorlik subyektlarining texnologik yangiliklarga investitsiya kiritishi va ilmiy tadqiqot natijalarining tijoratlashtirilishini ta'minlash hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Bugungi kunda yuqori texnologiyali mahsulot va xizmatlar bozori jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu bozor hajmi yiliga o'rtacha 1,2–2 foizga o'sib borayotgani, u xom ashyo, xususan neft, gaz va yog'och bozorlari hajmidan bir necha barobar katta ekanligi bilan ajralib turadi. Mavjud statistik ma'lumotlarga ko'ra, bu bozorda Rossiya Federatsiyasining ulushi atigi 0,3 foizni, AQSh – 32 foizni, Yaponiya – 23 foizni, Germaniya esa 10 foizni tashkil etadi. Bu holat innovatsion rivojlanish modeliga tayanayotgan davlatlar jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarni egallayotganini yaqqol ifodalaydi [13].

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish maqsadida bir qator kompleks chora-tadbirlar va strategik dasturlar ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilmoqda. Ushbu dasturlar tarkibida texnik va texnologik qayta qurollanish, iqtisodiyot tarmoqlarining diversifikatsiyasi, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan. Bular iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim poydevor hisoblanadi. Mamlakatimiz yuksak texnologiyalar asosida zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish orqali milliy iqtisodiy samaradorlikni tubdan oshirishga intilmoqda.

So'nggi yillarda tabiiy resurslarning cheklanishi va energiya manbalarining yetishmovchiligi fonida resurs tejankor texnologiyalarni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Mehnat resurslaridan foydalanishda esa ularning miqdori yoki arzonligi emas, balki malaka darajasi, kasbiy tayyorgarligi va innovatsion salohiyatining yuqoriligi asosiy ustunlik sifatida ko'zga tashlanmoqda. Shu sababli innovatsion yondashuv iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu jarayonda tashqi savdo salohiyatiga ega bo'lgan yuqori qiymatli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish orqali nafaqat xom ashyoni eksport qilish, balki uni qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Natijada, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va uning eksport salohiyatini oshirish uchun texnologik innovatsiyalar asosida yuqori daromadli mahsulotlarni ishlab chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yettita asosiy tarkibiy element mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan o'zaro integratsiyalashgan holda innovatsion jarayon strukturasi asosini tashkil etadi. Bular quyidagilardan iborat: innovatsiya tashabbusi, innovatsion marketing, texnologiyani ishlab chiqish, mahsulotni ishlab chiqarishga tatbiq etish, natijalarni tijoratlashtirish, iqtisodiy samaradorlikni baholash va innovatsiyaning bozorga tarqalishini anglatadigan diffuziya jarayoni. Mazkur elementlarning uzviy uyg'unligi innovatsion faoliyatning barqaror va tizimli shaklda olib borilishini ta'minlaydi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, innovatsion faoliyat bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnologik yangilanish va raqobatbardoshlikni oshirishda hal qiluvchi omilga aylangan. Shu boisdan iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsion yondashuvni chuqurlashtirish, ilg'or texnologiyalar asosida strategiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida zamonaviy fan va texnologiyalar asosida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari



iqtisodiyotning real sektorida mavjud ustuvor masalalarni hal etishga yo'naltirilgan. Ilmiy jamoalarning faoliyati ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsiyaviy asosda shakllantirish, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish, tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda bu borada zarur tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratishda davlatning ishtirokini ta'minlashga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi globallashuv sharoitida yangi texnologiyalarni joriy etish va ilmiy yutuqlardan samarali foydalanish korxonalar hamda umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lib, ular mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, shuningdek, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, innovatsion yondashuvlar iqtisodiy tarmoqlarning diversifikatsiyasini ta'minlab, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ishlab chiqarish sektori o'rtasidagi samarali hamkorlik innovatsion faoliyatning natijadorligini oshiradi. Shu bois, innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish, ularni amaliyotga tatbiq etish hamda iqtisodiyotning turli sohalarida keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Natijada, mamlakatning innovatsion salohiyati ortib borishi uning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, innovatsion faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks strategiyalarni ishlab chiqish va ularni izchil amalga oshirish zaruriy hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, innovatsion mahsulot va xizmatlarning bozorga tezkor chiqishini ta'minlash uchun qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani kengaytirish, ayniqsa texnoparklar, inkubatsiya markazlari va texnologik klasterlarni rivojlantirish;

Ikkinchidan, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarni tijoratlashtirishni rag'batlantirish, bu borada tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish orqali ilm-fanni real iqtisodiyot bilan bog'lash;

Uchinchidan, mahalliy korxonalarni xalqaro innovatsion loyihalar, startaplar va ilg'or xorijiy tajriba bilan integratsiyalash, texnologik almashinuvlarni jadallashtirish.

Yuqorida bayon etilgan takliflar innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirishga, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga va xalqaro raqobatga tayyor iqtisodiy tuzilmani shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. 2020–yil. Onlayn. Mavjud: <https://lex.uz/docs/-4910391>
2. X. Sh., A. D. va M. J., Innovatsion menejment. Buxoro, 2020. Onlayn. Mavjud: http://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_006357d023976c8.pdf
3. J. Schumpeter, Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung, Business Cycles, and Capitalism, Socialism and Democracy. 1911.
4. C. Freeman, "Schumpeter's Business Cycles and Techno-economic Paradigms", in Techno-economic Paradigms: Essays in Honor of Carlota Perez, W. Drechsler, E. Reinert va R. Kattel (tahr.), 2009, b. 126.
5. C. Antonelli, The Economics of Innovation, New Technologies, and Structural Change. Routledge, 2003.
6. M. Friedman, "A Friedman Doctrine – The Social Responsibility of Business Is to Increase Its Profits", New York Times Magazine, sentabr 1970.
7. D. Ahlstrom, "Innovation and Growth: How Business Contributes to Society", Academy of Management Perspectives, t. 24, soni 3, b. 11–24, 2010, doi: 10.5465/amp.24.3.11.
8. M. P. Prokhorova, N. A. Prodanova, S. M. Reznichenko, V. P. Vasiliev va V. S. Kireev, "Innovation Performance and its Influence on Enterprise Economic Efficiency in the Market", International Journal of Economics and Financial Issues, 2018. Onlayn. Mavjud: <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/365171>
9. M. F. Aliyev, "Innovation Management and Increasing Economic Efficiency", Economic Research Journal, t. 14, soni 4, b. 55–62, 2020, doi: 10.1111/j.1468-2370.2011.00311.x
10. R. K. Guliyev, "Application and Management of Economic Innovations in Azerbaijan", Baku State University Journal of Economic Sciences, t. 7, soni 2, b. 111–117, 2021.
11. Y. Fagerberg, M. Srholec va B. Verspagen, Handbook of the Economics of Innovation, jild 2, b. 833–872, 2010.
12. T. L. Kharlamova, A. V. Kharlamov va Y. A. Antokhina, "Effective Management as a Condition for Innovative Development of the National Economy", European Proceedings, 2021. Onlayn. Mavjud: <https://www.europeanproceedings.com/article/10.15405/epsbs.2021.09.02.111>
13. Onlayn. Mavjud: <https://innovation.gov.uz/ru/news/post-1741>
14. Onlayn. Mavjud: <https://innovation.gov.uz/info/global-innovatsion-indeks>
15. Onlayn. Mavjud: <https://www.wipo.int/en/web/global-innovation-index>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
